1-BO‘LIM.
TARBIYA NAZARIYASI

MILLIY TARBIYA TARG‘IBOTCHISIGA AYLANADI

Ibraimov Xolboy Ibragimovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori, "Tarbiya metodikalari" jurnali bosh muharriri, pedagogika fanlari doktori, akademik

Annotatsiya. Maqolada milliy tabiyaning mazmun-mohiyati, milliy qadriyatlar va urf-odatlarni avloddan avlodga yetkazishda oila, maktab va pedagoglarning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston-da milliy tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining maqsad va vazifalari hamda milliy tarbiya yo‘nalishidagi ilmiy-metodik loyihalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy tarbiya, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, oila tarbiyasi, pedagog, ta’lim, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy meros, tarbiya pedagogikasi.

Аннотация. В статье освещаются сущность национального воспитания, роль семьи, школы и педагогов в сохранении и передаче национальных ценностей и традиций от поколения к поколению. Также рассматриваются государственная политика в сфере развития национального воспитания в Узбекистане, цели и задачи Национального института педагогики воспитания имени Кори Ниёзий, а также научно-методические проекты в области национального воспитания.

Ключевые слова: национальное воспитание, национальные ценности, традиции, семейное воспитание, педагог, образование, духовно-нравственное воспитание, национальное наследие, педагогика воспитания.

Abstract. The article discusses the essence of national upbringing and the role of families, schools, and teachers in preserving and transmitting national values and traditions from generation to generation. It also highlights the state policy aimed at developing national upbringing in Uzbekistan, the goals and objectives of the Kori Niyoziy National Institute of Pedagogy of Up-

bringing, and scientific and methodological projects in the field of national upbringing.

Keywords: national upbringing, national values, traditions, family upbringing, teacher, education, spiritual and moral upbringing, national heritage, pedagogy of upbringing.

Yer yuzida turli millat va elatlar istiqomat qiladi hamda ularning shunga mos ravishda tili, lahjasi va shevasi mavjud. Har bir millat va elatning o‘z milliy qadriyatlari, odob-axloqi va urf-odatlari bor. Va bu milliy qadriyatlar asrlar osha yashab kelmoqda. Ularning shu kungacha yashab kelishida, albatta, ma’rifatparvar ajdodlarimiz, bugungi ibora bilan aytganda milliy tarbiya, qolaversa, pedagoglarning o‘rni va hissasi beqiyos. Atoqli adib Komil Yashin milliy tarbiyada pedagogning o‘rni haqida shunday deydi: ''Pedagogning asosiy vazifasi yoshlarni o‘z millatining madaniyati va tarixiy merosiga hurmat bilan qarashga o‘rgatishdir.” U pedagogning nafaqat bilim beruvchi, balki o‘z millatining madaniyati va qadriyatlarini tarbiyalovchi sifatida ham muhim rol o‘ynashini aytadi.

Mashhur jadid bobomiz Abdulla Avloniy milliy tarbiya haqida kuyinib shunday degan: “Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga javoban: birinchi - uy tarbiyasidur. Bu onalarning vazifasidur. Ikkinchi - maktab va madrasa tarbiyasidur. Bu otalar, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur.” Demak milliy tarbiyaning beshigi, eng avvalo, uy, oila va unda asosiy vazifani bajaradigan ayollarimiz, onalarimizdir. Undan so‘ng esa maktab va boshqa ta’lim muassasalari muhim o‘rin tutadi. Shu bois bugungi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan milliy tarbiyaga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-sonli, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-sonli, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli Qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil

“Tarbiya orqali insonning fe’l-atvori shakllanadi, ta’lim orqali esa uning bilimi kengayadi.”

Yusuf Xos Hojib



31-dekabrdagi 1059-sonli qarorida milliy tarbiyaga e'tiborsizlik illati ichki tahdid sifatida qayd qilingan va mazkur holatni bartaraf qilish bo'yicha bir qator vazifalar, chora-tadbirlar belgilangan. Bu o'z navbatida, bizning jamoamiz, ya'ni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti zimmasiga ham katta ma'suliyat yuklaydi. Prezidentimizning 2024-yil 21-iyunda qabul qilgan qarori asosida Qori Niyoziy nomidagi

O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining Tarbiya pedagogikasi milliy instituti deb nomlangani va uni butkul yangicha asosda tashkil etilgani, tarbiya pedagogikasi masalalari bilan shug'ullanadigan maxsus ilmiy tadqiqot maskaniga aylantirilgani ham bugungi kunda milliy tarbiyaga yuqori darajada e'tibor qaratilayotganidan yaqqol dalolat beradi.

Institutimiz o'z faoliyati davomida asosiy e'tiborni tarbiyaga, xususan, milliy tarbiya asoslariga qaratadi, yetakchi xorijiy universitet va ilmiy markaz-lar bilan tarbiya metodikalarini ishlab chiqish bo'yicha hamkorlik o'rnatadi. Ular bilan birgalikda qo'shma tadqiqotlar olib boradi. Bundan tashqari maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchi va o'quvchilari uchun milliy tarbiya yo'nalishida turkum adabiyotlar nashr etiladi. Institut tomonidan tarbiya yo'nalishida yangi loyihalar amalga oshiriladi. Ularga xorijiy ekspertlar, davlat va nodavlat tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari va jamoatchilik institutlari mutaxassislari hamda olimlari jalb etiladi. Ota-onalarning farzand tarbiyasi borasidagi bilimini oshirishga qaratilgan «Namunali ota-onalar maktabi» loyihasi hamda milliy tarbiyaning hududiy an'analarini o'rganish, tiklash va zamonaviy ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimiga joriy qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Muxtasar aytganda, institumiz zimmasiga milliy tarbiya bilan bevosita bog'liq bo'lgan muhim maqsad va vazifalar yuklatilgan. Ularni to'laqonli amalga oshirish va joriy etish, tarbiya pedagogikasi borasidagi tajribalarni keng targ'ib qilish hamda ommalashtirishda yangi tashkil etilgan va bugun ilk soni siz mushtariylar qo'liga yetib borgan "Tarbiya metodikalari" ilmiy-ommabop jurnali alohida o'rin tutadi va o'zining munosib hissasini qo'shadi, deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-

4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish va bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish to‘g‘risida”gi qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.